

## **GOVERS-VELANDERNING KECH BOSHLANUVCHI DISTAL MIOPATIYASI**

**Etiologiyasi va klinikasi.** Nasldan-naslga autosom-dominant tipda o'tadi. Genetik defekt 2-xromosomada (2p13) aniqlanadi. Kasallik, asosan, 40-60 yoshlarda uchraydi. Ba'zida 20 yoshlarda ham boshlanishi mumkin. Atrofiyalar ikkala oyoqning distal muskullaridan boshlanadi. Buning natijasida xuddi Sharko-Mari amiotrofiyasiga o'xshagan holat yuzaga keladi, biroq sezgi buzilishlari kuzatilmaydi. Keyinchalik atrofiyalar qo'llarning distal muskullariga o'ta boshlaydi. Parallel tarzda pay va periostal reflekslar pasaya boradi. Proksimal muskullar kasallikning so'nggi bosqichida atrofiyaga uchraydi. Yuz muskullari zararlanmaydi. Pseudogipertrofiya va pay retraksiyasi yuzaga kelmaydi. Kardiomiopatiya kuzatilishi mumkin. Qonda KFK miqdori biroz oshadi. Zo'rayib boruvchi xususiyatga ega.

**Manba:** © Z. Ibodullayev. Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.

© Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi

© [www.asab.uz](http://www.asab.uz)